

RAQAMLI DAVRDA KICHIK TILLARNING YO'QOLISH XAVFI VA ULARNI SAQLASH STRATEGIYALARI

Abduraxmonova Sevinch Ma'mur qizi
ÒzDJTU 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar rivojlanishi fonida kichik tillarning yo'qolish xavfi va ularni saqlash strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tillarning raqamli maydonlarda rivojlanishi, yo'qolish sabablarini aniqlash, shuningdek, ularni saqlash va tiklashning zamonaviy usullari yoritiladi. Maqola natijalari tilshunoslik, psixolingvistika va axborot texnologiyalari integratsiyasi nuqtai nazaridan amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Kichik tillar, tilni saqlash, raqamli texnologiyalar, til revitalizatsiyasi, axborot texnologiyalari, madaniy meros, jamoa faolligi.

Аннотация. В данной статье анализируется риск исчезновения малых языков в условиях цифровой эпохи и стратегии их сохранения. Рассматриваются причины сокращения использования малых языков под влиянием социальных, культурных и технологических факторов. Предлагаются эффективные стратегии сохранения языка, включая цифровые платформы, мобильные приложения, онлайн-словари и вовлечение местных сообществ.

Ключевые слова: Малые языки, сохранение языка, цифровые технологии, возрождение языка, информационные технологии, культурное наследие, вовлечение сообщества.

Abstract. This article analyzes the risk of extinction of minority languages in the digital age and strategies for their preservation. The study examines the social, cultural, and technological factors contributing to the decline of these languages. Effective preservation strategies are suggested, including digital platforms, mobile applications, online dictionaries, and community engagement.

Keywords: Minority languages, language preservation, digital technologies, language revitalization, information technology, cultural heritage, community engagement.

Kirish. Til–millat ko'zgusi. Millat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar tilda yaqqol o'z aksini topadi. Agar til yo'qolsa, o'sha millat ham tanazzulga uchraydi. Bunga tarixdan misollar bisyor. Jadid bobokalonimiz Abdulla Avloniyning ushbu gapi fikrimizning ravshan dalili bo'ladi: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning millatning ruhini yo'qotmakdir".

Asosiy qism. Raqamli davr tilshunoslik sohasida yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, kichik tillarning yo'qolish xavfini kuchaytirmoqda. Internet, mobil ilovalar va global media ko'lamining kengayishi asosiy tillarning dominantligini oshiradi, natijada kichik tillar kundun-kunga kamroq ishlatiladi. Shu sababli, ularni saqlash va rivojlantirish strategiyalari bugungi ilmiy tadqiqotlar markazida turadi. Dunyo miqyosida kichik va yo'qolib borayotgan til oilalari asosan izolyat tillar yoki juda oz sonli so'zlashuvchisi qolgan tillar guruhidan iborat. Bunga misol sifatida Markaziy Osiyodagi rasmiy maqomga ega bo'lmagan va yo'q bo'lish xavfi ostida bo'lgan Pomir tillari (masalan, Shug'noni, Rushoni) yoki juda kam sonli mahalliy xalqlar tillari

kiradi. Masalan, Chulim tili (Rossiya) atigi 44 kishi soʻzlashadigan oʻta kichik til boʻlib hozirgi kunda yoʻqolish arafasida turibdi. Ushbu turdagi tillarning hozirgi kunda yoʻqolib borishiga sabab bõluvchi asosiy omillarni tahlil qilish juda zarur hisoblanadi. Xususan, kichik tillar yoʻqolishining asosiy sabablari ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillar bilan bogʻliq. Davlat tilining ustunligi, urbanizatsiya va migratsiya, shuningdek, raqamli resurslarning kamligi kichik tillarning ishlatilishini kamaytiradi (Romaine, 2000; Crystal, 2001). Shu bilan birga, yosh avlodning asosan dominant tillarda muloqot qilishi kichik tillarni faol ishlatilmaydigan holga olib keladi. Raqamli texnologiyalar va ularning imkoniyatlari haqida gapirar ekanmiz, darhaqiqat, raqamli platformalar kichik tillarni saqlash va rivojlantirish uchun samarali vosita boʻlishi mumkin. Masalan, tilni oʻrgatadigan mobil ilovalar, onlayn lugʻatlar va interaktiv oʻquv dasturlari yordamida tilni keng auditoriyaga yetkazish mumkin (Romaine, 2000; Austin, 2008). Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqali kichik tillarda yozish va suhbatlashish imkoniyati yaratiladi. Yillar davomida dolzarb muammolarning markaziga aylanayotgan bu holatni bartaraf qilish uchun turli yechim yoʻllari ham ishlab chiqilgan. Masalan, kichik tillarni saqlash boʻyicha bir nechta samarali strategiyalar mavjud:

- Tilni maktab va oliy taʼlimda oʻrgatish;
- Onlayn resurslar va mobil ilovalar yaratish;
- Kichik tillarda matn, audio va video materiallar ishlab chiqish;
- Mahalliy jamoalarni faollashtirish va tilni uy sharoitida qoʻllashni ragʻbatlantirish (Crystal, 2001; Romaine, 2000). Shuningdek, raqamli arxivlar va maʼlumotlar bazalari kichik tillarni saqlash va tadqiq qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Oʻzbek tilini va hududiy tillarni raqamli davrda qanday saqlab qolish mumkin? Demak, oʻzbek tilshunos olimlarining tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistondagi hududiy tillar va lahjalar raqamli resurslar orqali faollashtirilsa, ularni yoʻqolishdan saqlash mumkin (Mirtojiev, 2000; Abdurahmonov, 2010). Shu jumladan, raqamli lugʻatlar, podkastlar va YouTube kanallari orqali kichik tillarda kontent yaratish samarali strategiya hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli davr kichik tillarning yoʻqolish xavfini oshirsa-da, zamonaviy texnologiyalar ularni saqlash va rivojlantirish imkonini beradi. Kichik tillarni faol ishlatish, raqamli resurslar yaratish va mahalliy jamoalarni ragʻbatlantirish til yoʻqolishini sekinlashtiradi. Shu bilan birga, tilshunoslik va axborot texnologiyalari integratsiyasi kichik tillarning barqarorligini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Romaine, S. (2000). *Endangered languages*. Cambridge University Press.
2. Austin, P.K. (2008). *Preserving endangered languages*. Cambridge University Press.
3. Mirtojiev, M. (2000). *Tilshunoslik asoslari*. Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
4. Abdurahmonov, A. (2010). *Oʻzbek tilining muammolari va istiqbollari*. Oʻqituvchi nashriyoti.
5. Crystal, D. (2001). *Digital language death*. Cambridge University Press.
6. [Oyina.uz](https://oyina.uz/uz/article/1608). (2021, May 5). *Yoʻqolib borayotgan tillar: muammo va yechimlar*. <https://oyina.uz/uz/article/1608>